



MADANIYATLARARO MULOQOTNING TALABALARGA O'RGATILISH AHAMIYATI

Olimjonova Komila Umidjon qizi

talaba

G'aniyeva Tohira

Ilmiy raxbar:

Andijon chet tillar instituti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 08-May 2023 yil

KEY WORDS

Kommunikativ, xalqaro muloqot, chet elliklar, "madaniyatlar kesishuvi",

ABSTRACT

ushbu maqolada madaniyatlararo muloqotning talabalarga o'rgatilish ahamiyatin ko'rib chiqilgan bo'lib. Kommunikativ xatolarni oldini olish va madaniy shokdan qochish uchun talabalarga madaniyatlararo muloqot o'rgatilishining muhimligi ta'kidlangan.

Turli xalqlar, tillar va madaniyatlar yaqinlashib borgani sari xorijiy tillarni o'rganish bilan bir qatorda boshqa madaniyatlarga ham qiziqish ortib bormoqda. Madaniyatlararo muloqot (Intercultural Communication) –turli madaniyat vakillari orasidagi o'zaro aloqa, muloqot bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek, kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muloqot) nazarda tutiladi. Ba'zan madaniyatlararo muloqot "madaniyatlar kesishuvi" ("cross-cultural")ni ham ifodalaydi.

Madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari umume'tiborni tortmoqda. Madaniyatlararo muloqot muammolari bilan shug'ullangan aksariyat xorijlik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, chet elliklar bilan muomalada bo'lganda grammatik, leksik va uslubiy xatolar kechiriladi, chunki bu ulardagi til bilimining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Biroq muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy me'yorlarning, odob-axloq qoidalarining buzilishi salbiy qabul qilinadi. Chunki bunday me'yorlarning buzilishi muayyan madaniyat vakilining kamsitilishi yoki haqoratlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ xatolarni oldini olish, madaniy shok holatidan qochish uchun xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish zamon talabi darajasiga chiqib ulgurdi.

Mahalliy fan va ta'lim tizimida madaniyatlararo aloqani o'rganishni tashabbuskorlari chet tillari o'qituvchilari bo'lib, ular boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun chet tilida yolg'iz gaplashishning o'zi yetarli emasligini juda yaxshi anglaydilar. Chet elliklar bilan muloqot qilishning turli xil amaliyoti shuni isbotladiki, chet tilini chuqur bilish ham ushbu tilda so'zlashuvchilar bilan tushunmovchilik va ziddiyatlarni istisno etmaydi. Bugungi kunda boshqa madaniyatlarning vakillari bilan muvaffaqiyatli aloqalarni ushbu madaniyatlarning xususiyatlarini bilmasdan va madaniyatlararo muloqotda amaliy ko'nikmalarsiz amalga oshirish mumkin emasligi ayon bo'ldi.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning urf-odati, noverbal muloqot vositalari, diniy qarashlaridan behabarlik ham ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Irim-sirimlar haqida gap ketganda, barchamizga ma'lumki, irim-sirimlar barcha davlat va

madaniyatlarda keng tarqalgan va ko'plab insonlar ularga ishonadi. Endi, siz Amerika davlatiga tashrif buyuringiz va o'zingiz bilan sevimli qora mushugingizni ham oldingiz. Va mehnonxona yoi ko'chada mushugingiz bir amerikalikning oldidan o'tib ketdi. Xo'sh , Amerikaliklar bunga qanday qaraydi? Amerika davlatida qora mushukning oldingizdan o'tib ketishi katta baxtsizlik hisoblanadi. Ammo, Buyuk Britaniyada qora mushuk omad olib keluvchidir.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish ularga madaniy to'siqlardan cho'chimaslik va madaniy me'yorlardan xabardorlikni shakllantirish, shuningdek, o'z-o'zini anglash va muloqot qobiliyatlarini oshirish uchun nihoyatda zarur. Muloqotning bu shaklini talabalarda shakllantirish, ularning qobiliyatlarini va mahoratlarini jahon miqyosida ko'rsata olish hamda madaniyatlararo hamkorlik ehtiyojlariga mos kelish uchun o'zlarini aynan o'sha vaziyatga osongina moslashtira olishlariga yordam beradi.

Talabalarda madaniyatlararo muloqot haqida kng bilimlar va fikrlar bo'lishi uchun Madaniyatlararo muloqot fan sifatida o'quv dasturiga kiritildi. Zero yoshlarning Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganidek: "mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi" o'ta muhim vazifalardan birdir.

Xulosa: xulosa qilib shuni aytish mumkunki "Madaniyatlararo muloqot" fanining maqsadi – muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e'tibor bergan holda tahlil qilishdan, farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to'qnashuvlarni oldini olishdan iborat. Talabalarni madaniyatlararo muloqot masalalaridan xabardor etish, ularga kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalanish, kommunikatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, til va madaniyatning o'zaro aloqasi, shaxs va uni shakllantiruvchi omillar, milliy xarakter, madaniyatlararo to'siqlar va to'qnashuvlarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish, diskursning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish "Madaniyatlararo muloqot" fanining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent. O'zbekiston. 2017 Sh.Usmonova. G .Rixsiyeva "Madaniyatlararo muloqot" qo'llanma. Toshkent-2017 <https://ureader.ru/uz/osobennosti-mezhkulturnogo-obshcheniya-osobennostimezhkulturnoi>
2. Ibroximjon M., Mukarrama J. HOZIRGI KUN YOSHLARINI IJTIMOIIY MUNOSABATLARGA KIRISHISHIDA CHET TILLARINI O'RGATILISHI VA UNING AHAMIYATI //Involta Scientific Journal. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 178-182.
3. Maxmudjonov I. OSMIR YOSHIDAGI BOLALARNING OQISHGA BOLGAN MOTIVATSIYASINI OSHIRISH //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-63.
4. Maxmudjonov I. OSMIR YOSHIDAGI BOLALARNING OQISHGA BOLGAN MOTIVATSIYASINI OSHIRISH //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-63